электронное периодическое издание

# ЭКОНОМИКА и социум

ISSN 2225-1545
№1(80)-2021



ЭЛЕКТРОННОЕ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЕ
ПЕРИОДИЧЕСКОЕ ИЗДАНИЕ

# «Экономика и социум»

http://www.iupr.ru

***ISSN 2225-1545***

УДК 004.02:004.5:004.9

ББК 73+65.9+60.5

Свидетельство о регистрации
средства массовой коммуникации
Эл № ФС77-45777
от 07 июля 2011 г.

***Редакционный совет:***

*Зарайский А.А., доктор филологических наук, профессор,*
*Калимбетов Х.К., доктор экономических наук, доцент,*
*СмирноваТ.В., доктор социологических наук, профессор,*
*Федорова Ю.В., доктор экономических наук, профессор,*
*Постюшков А.В., доктор экономических наук, профессор,*
*Тягунова Л.А., кандидат философских наук, доцент*
**Отв. ред. А.А. Зарайский**

Выпуск №1(80) часть 1 (январь, 2021). Сайт: http://www.iupr.ru

© *Институт управления и социально-экономического развития, 2021*

UDC 800

***Jo'rayeva N.Sh.***
***nemis va fransuz tillari kafedrasi o'qituvchisi***
***Buxoro davlat universiteti***

# EVFEMIZMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

*Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikda "evfemizm" va "tabu" tushunchalarining ahamiyati, tabu va evfemizmlar xalqning ijtimoiy hayoti, milliy urf-odatlari, mentaliteti bilan bog'liq holda mavjud bo'lishi, bu ikki tushuncha madaniyat va til manbalaridan tarkib topgan etnolingvistik atamalar ekanligi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o'zbek va fransuz tili leksikasida mazkur tushunchalarning tutgan o'rni haqida so'z boradi.*

*Kalit so'zlar: evfemizm, tabu, evfemizmlashtirish, semantik kategoriya, stilistik vosita.*

Har bir fanda rivojlanish bo'lgani kabi tilshunoslik ham kundan-kunga taraqqiy topib, turli yangi oqimlar, yo'nalishlar, yangi ilmiy-nazariy qarashlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Darhaqiqat inson tili benihoya murakkab bo'lib, uning barcha jihatlarini yaxlitligicha va birdaniga tasavvur qilish o'ta murakkabdir. Shunday bo'lsa-da, dunyo tilshunosligi tarixidagi bir necha asrlik tajribalar turli oqim namoyandalari tilni tadqiq etishni eng maqbul yo'l hisoblab, bu yo'lda o'rganish obyektini va uning mohiyatini aniq ko'rsatib berish uchun butun umrlarini sarflaganlarini ko'rsatadi[1] Hozirgi zamon yetakchi tilshunoslik ilmiy markazlarida "evfemizm" tushunchasi nihoyatda keng qo'llaniladi, semantik kategoriya sifatida muloqotning mazmunga boy jihatlarini namoyon etadi, ifodalangan fikr-mulohazaning muloqot jarayonidagi nufuzini oshiradi. "Evfemizm" yunoncha "yumshoq ifodalash" so'zlovchiga aytish noqulay, noo'rin yoki qo'pol tuyulgan so'z va iboralarning sinonimi sifatida paydo bo'lgan so'zlardir.

Leksikograf O.S. Axmanova tahriri ostida nashr qilingan lingvistik lug'atda evfemizmga „so'zlovchiga beadab, qo'pol, nazokatsiz ko'ringan, o'z sinonimi o'rnida qo'llanila oluvchi hissiy bo'yoqsiz so'z va ibora" degan izoh keltirilgan[2].

D.N.Shmelev ham shu mazmunga hamohang „evfemizm – so'zlovchiga ma'lum sharoitda noma'qul ko'ringan, nihoyatda o'tkir, aytilishi odobdan sanalmagan, ayni bir ma'noni ifodalashga xizmat qiladigan, nomunosib so'zdan saqlanish maqsadida yumshatilgan ifoda" deb izohlaydi[3].

Evfemizm salbiy voqelikni atashdan qochish, shunday voqelikning salbiy ta'sirini yumshatish uchun xizmat qilib, kishining izzat-nafsiga tegadigan, unga malol keladigan, hurmatsizlik ifodalaydigan, axloqiy me'yorlarga zid keladigan

[1] Жўраева М.М. Француз ва ўзбек тилларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фанлари доктори... дисс. – Т., 2017. – Б.15
[2] Лингвистический энциклопедический словарь / О.С.Ахмановой. -2-е изд.,стер. – М : УРСС : Едиториал УРСС, 2004. – 571 с.;
[3] Шмелёв Д. Н. Эвфемизмы // Русский язык: энциклопедия / под ред. Ф.П. Филина, - М.: Совестская энциклопедическая,1979.

holatlarning yoki to'g'ridan to'g'ri aytish mumkin bo'lmagan maxfiy voqeliklarning salbiy ta'sirini kamaytirish, ularni yashirish, berkitish; noxush xabarni beozorroq, yumshoqroq shaklda yetkazish, ifodalash uchun ishlatiladi.Tilda muayyan nutq vaziyati talabi bilan vujudga kelgan evfemizm ham mavjudki, ularning ma'nosi ko'pincha matn orqali oydinlashadi. Evfemizm ilmiy va rasmiy uslublarda keng qo'llanadi[4]. Evfemizmni badiiy adabiyotlar orqali o'rgansak, stilistik vosita sifatida katta ahamiyat kasb etishini ko'rish mumkin. Badiiy asarlarning tarjimasida bu hol yaqqol ko'zga tashlanadi. Tilshunos olimalar, D.H. Karimovaning ilmiy tadqiqotlarida[5], M.M. Mahmudovaning tarjimaga oid ilmiy maqolalarida[6] evfemizmning namunalarini uchratish mumkin. Evfemizmlar nafaqat adabiy-badiiy asarlarda ishlatiladi, balki ularni qo'llash so'zlovchidan katta san'atni talab qiladi.

Insoniyatning madaniy taraqqiyoti til rivojiga ta'sir qilib, madaniyat yuksalgani sayin evfemizmlar ham sayqallanib bordi. "Shuning uchun, evfemizm hodisasini o'rgana turib, albatta, uning kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-madaniy muhitni inobatga olish kerak"[7].

Xorij tilshunosligida evfemizmga boshqa yondosh hodisalar kriptologiya, jargon bilan teng munosabatda qaralishi e'tiborlidir. Shuningdek, evfemizmlarning yondosh hodisalar (yashirin nutq, kriptologiya, meditsinadagi latinizm, harbiy parollar) bilan qorishtirilgan holatlari ham ko'zga tashlanadi[8]. Darhaqiqat, evfemizm inson nutqida eng muhim birlik hisoblanadi. Evfemik hodisalar o'zida til va madaniyat mushtarakligini aks etadi. Odamning nutq faoliyati axloqiy normalarga rioya qiladi. Shubhasiz, muloqot madaniyati darajasini, nutqiy madaniyat saviyasini ko'rsatuvchi muhim vositalardan biri evfemistik ifodalardir. Evfemizmlar haqida fikr yuritar ekanmiz, evfemizmning lingvokulturologik fenomen ekanligini ta'kidlashimiz kerak. Ya'ni evfemizmlarni tahlil qilganimizda, ayniqsa, fransuz va o'zbek tilshunosligida evfemizlarning o'rni, ularning mohiyatini ko'rib chiqqanimizda, bu ikki tilda evfemizmlar madaniyat jihatdan tubdan farq qilishini guvohi bo'ldik. Bu ayniqsa, milliy mentalitet, madaniy o'ziga xoslik bilan chambarchas bog'liq.

Aslini olganda, o'zbek tilidagi evfimizmlarning ildizi diniy qarashlar bilan chambarchas bog'liq. Islom dini ta'limotiga ko'ra, yomon so'zlarni ishlatib, til bilan bo'lsada birovning ko'ngliga ozor berish gunoh sanaladi. Ba'zi o'zbek oilalarida erkak xotiniga katta qizining ismi bilan, xotin esa eriga katta o'g'lining ismi bilan yuzlanadi. Xotinga nisbatan *onasi, oyisi, ayasi,*erga nisbatan *otasi, dadasi, adasi* kabi murojaat shakllarini qo'llash mumkin: *To'g'ri, dadasi, men aytaman. Hoy onasi, suyunchini cho'z.* Mazkur xitob shakllari ibtidoiy davrlardan

---

[4] Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ., Ўзбек тили стилистикаси, Т., 1983.

[5] Каримова Д.Ҳ. "Variability and invariability in fairy tales (as the example of the translation of grimms` fairy tales)", International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 06, 2020. – Б. 138-144

[6] Маҳмудова М.М. "Preservation of originality in the translation of Goethe's works", International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 06, 2020. – Б. 152-159

[7] Крысин Л.П. Эвфемизмы с современной русской речи. Русский язык конца столетия. – М.: ЭКСМО, 1996.

[8] Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка. – М., 2007. -264 с.

qolgan tabu qoldig'i bo'lib[9], u oilada er-xotindan ko'ra ko'proq bolalarning ota-ona juftligini, sherikligini, ya'ni bolalarning qadrini, ahamiyatini namoyon qiladi. O'zbek xonadonlarida ayollar o'z turmush o'rtoqlarini boshqalarning oldida ismi bilan atab chaqirishlari erish, hatto, uyat deb qaralgani bois, *"dadajonisi" (père de mes enfants), "turmush o'rtog'im" (compagnon de ma vie), "jufti halolim" (mon couple)* kabi evfemizmlar paydo bo'lgan. Shu bilan birga, o'zbek madaniyatiga ko'ra erkaklar ham o'z ayollarini *"oyijonisi" (mère de mes enfants), "rafiqam" (mon bien-aimé), "ayolim" (ma femme)* kabi so'zlar bilan ataydilar. Bu o'rinda farang erkaklari *"ma belle", "ma chérie", "mon coeur"*so'zlaridan foydalanishadi.

Fransuz tilida ishlatiladigan *"dame", "demoiselle","jeune-fille" kabilar "femme"* so'zining o'rnida qo'llanilib, so'zlovchining murojaat qilinayotgan shaxsga bo'lgan hurmatini, uning yoshini va oilaviy holatini inobatga olgan holda, e'tibor bilan so'zlayotganidan darak beradi. Bu so'zlar o'zbek tilida ham o'ziga xos alternativga ega bo'lib, *"qizoyim" (mademoiselle), "qiz" (jeune-fille), "ayol" (une femme adulte), "onaxon" (une femme senior)* kabi ishlatiladi.

Bundan tashqari, kelinlar qaynona so'zi o'rniga *"oyijon" (ma chère maman), qaynota so'zi o'rniga esa "dadajon" (mon cher papa)* so'zlarini ishlatishadi. Ammo, fransuz ayollari turmush o'rtoqlarining ota-onasini ularning ismi bilan chaqirishadi, va bu ular uchun oddiy hol. O'zbek xonadonlarida kelin homilador bo'lganligi haqidagi xabarni ham to'g'ridan-to'g'ri aytish uyat hisoblanganligi uchun *"homilador" so'zi o'rniga "bosh qorong'u", "og'ir oyoq" , "ikki qat" , "ikki jon"* kabilar qo'llaniladi. Fransuz tilida ham mazkur holatni ifodalash uchun ishlatiladigan evfemizmlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardir: *"Autour de bébé", "attendre un enfant", "être mère", "la femelle en gestation", "gestante", "en voie de famille" , "avoir un polichinelle dans le tirroir".*

Yuqoridagi aytilgan fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, evfemizm - qo'pol yoki dag'al so'z va iboralarni nisbatan yumshoq ifoda etadi. Evfemizm har xil noto'g'ri tushunchalar, irim - sirim, diniy e'tiqodlarni berkitishda o'rab turgan dunyo hodisalari, aniq bir belgilangan narsalarni nomi bilan berkitishda leksik ta'qiqlarni natijasini, nima oqibatida inson kinoyali iboralarni qo'llashini bildiradi. Boshqacha aytganda, aytish uyat, eshitilishi qo'rqinchli, xavfli, noxush deb hisoblangan, insonda yomon his - tuygular uyg'otadigan narsa - hodisa yumshoq, muloyim, yoqimli, erkalovchi, beozor, chiroyli ma'no - mazmun ifodalovchi so'z va iboralar almashtirib aytilishidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Жўраева М.М. Француз ва ўзбек тилларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фанлари доктори... дисс. – Т., 2017. – Б.15

2. Лингвистический энциклопедический словарь / О.С.Ахмановой. -2-е изд.,стер. – М : УРСС : Едиториал УРСС, 2004. – 571 с.

[9] Kuçkartayev İ. Özbeklerde Hitap Sözleri ve Hitap Kültürü // Uluslararası Dördüncü Türk Kültürü Kongresi Bildirileri. A., 2000, s. 325.

3. Шмелёв Д. Н. Эвфемизмы // Русский язык: энциклопедия / под ред. Ф.П. Филина, - М.:  Совестская энциклопедическая, 1979.
4. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ., Ўзбек тили стилистикаси, Т., 1983.
5. Каримова Д.Ҳ. “Variability and invariability in fairy tales (as the example of the translation of grimms` fairy tales)”, International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 06, 2020. – Б. 138-144
6. Маҳмудова М.М. “Preservation of originality in the translation of Goethe’s works”,  International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 06, 2020. – Б. 152-159

## Оглавление

Abdukakhorova S.K., THE PROBLEM OF OSTEOPOROSIS IN WOMEN OF CLIMACTERIC AGE ..... 3

Abdullaeva D.A., Umarova M.A., CLINICAL AND PATHOGENETIC VARIANTS OF BRONCHIAL OBSTRUCTIVE SYNDROME IN INFANTS. 6

Abdumajitova S.A., STEAM TEACHING TECHNOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS AS A FACTOR OF EARLY DEVELOPMENT ..... 10

Abduvalieva G.T., Yaminova N.Kh., Valieva V.Yu., THE PREVALENCE OF SPLENOMEGALY SYNDROME IN CHRONIC LIVER DISEASES ..... 14

Adambaev U., CONFIDENCE – NONVERBAL METHODS OF ARGUMENTATION IN THE FORMATION OF THE VERB ..... 18

Adilov B.B., THE IMPORTANCE OF NAQSHBANDIYA SECT PHILOSOPHY IN THE HISTORY OF NATIONAL STATEHOOD ..... 22

Allamuratov G.A., INTEGRATION OF LISTENING AND SPEAKING TO IMPROVE LANGUAGE LEARNERS' COMMUNICATIVE COMPETENCE ..... 26

Aminova D.O., THE EFFECT OF SOCIAL PROCESSES ON HUMAN CONSCIOUSNESS ..... 30

Arislonova R., METHODS OF IMPROVING THE QUALITY AND EFFECTIVENESS OF TEACHING MUSIC CULTURE ..... 33

Azamjonova Kh., Pazilov M., INNOVATIVE METHODS IN EDUCATIONAL PROCESS ..... 36

Bayturaeva N.I., CREATIVE COMPETENCE OF A FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHER AS A PEDAGOGICAL PROBLEM ..... 39

Bobojonova S.E., O'RTA ASRLARDA BUHORODA HUKUMRONLIK QILGAN MALIKA ..... 43

Boltabayeva M.R., MODERN PROBLEMS OF LINGUISTICS AND METHODS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE ..... 46

Chalaboeva Z.M., SOME DERIVATIVES OF 3-AMINO-1,2,4-TRIAZOLE.. 49

Dalimova M.M., GENERAL DESCRIPTION OF PROTEINS ..... 53

Dedajanov B.N., Ergasheva F.I., THE PROCESS OF ECONOMIC EDUCATION OF STUDENTS: PROBLEMS, SOLUTIONS AND DEVELOPING FACTORS ..... 57

Egamkulov K.E., Karshibayeva L.K., SIRDARYO VILOYATI AHOLISINING MILLIY TARKIBI UNING GEOKRIMINOGEN HOLATGA TA'SIRI ..... 62

Ergashev A.A., Najmitdinova G.K., FEATURES OF DIFFERENTIATED TEACHING OF CHEMISTRY ........ 65
Gafurova V.M., ABOUT THE CONCEPTS OF CULTURE AND ETHNOCULTURE ........ 69
Hakimova Z.Kh., CLASSIFICATION OF TERMS IN THE FIELD OF TREASURY ........ 73
Ibragimov L.Z., Akbarov A.N., Ubaydullayev D.K., THEORETICAL ISSUES OF EMPLOYMENT OF POPULATION AND ITS GEOGRAPHICAL STUDY ........ 76
Iminova N.A., SMALL BUSINESS: CHARACTERISTICS, TYPES, ROLES AND PLACE OF POLICY IN MODERN LIFE ........ 84
Inaqov T.Q., SOME PHYSICAL AND CHEMICAL PROPERTIES OF ALCOHOLS ........ 89
Ismailov T.Kh., THE IMPORTANCE OF RUSSIAN CLASSICAL COMPOSERS IN CLASSES OF MUSIC CULTURE ........ 93
Ismoilov D.M., Tillaboev N.A., PREVENTION OF ANEMIA IN MOTHERS AND IDENTIFICATION OF THE CAUSE OF THEIR TRANSMISSION FROM GENERATION TO GENERATION ........ 96
Jalilova K.E., THE METHODS AND AIDS IN THE PRESENTATION OF TEACHING MATERIALS OF TEACHING ENGLISH ........ 101
Jonibekova H., BOG’CHA YOSHIDAGI BOLA SHAXSINING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIGA OILAVIY MUHITNING AHAMIYATI ........ 104
Jo’rayeva N.Sh., EVFEMIZMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI ........ 107
Juraeva X.T., MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN TEACHING AND LEARNING OF PHYSICS AND ASTRONOMY ........ 111
Kadirova S.M., RABG’UZIYNING “QISSASI RABG’UZIY” ASARIDA HIKOYATLAR POETIKASI ........ 114
Kasimova D.B., CONTENT AND TYPES OF INTERACTIVE GAMES ..... 119
Kayumov J.S., ON THE DEVELOPMENT OF UZBEK ACADEMIC SINGING ........ 121
Khakimjonova G.A., LEARNING METHODS OF ENGLISH IN UZBEKISTAN ........ 124
Khakimov Z.K., Nurmatov Kh.V., Siddikov K.M., Yusupov B.L., Raimberdiev S.A., HIGH TECHNOLOGIES IN EARLY DETECTION OF BREAST CANCER IN WOMEN OF DIFFERENT AGE GROUPS ........ 127
Khalmirzaeva S.S., TECHNOLOGICAL AND SOCIAL CAUSES OF THE MODERN ENVIRONMENTAL CRISIS ........ 131

Khodiyeva Sh.A., HOW CELTA CHANGED MY LIFE DISAPPOINTMENTS AND ACCOMPLISHMENTS ........ 134
Khushnazarova A., THE BENEFITS OF READING ARE IN RESEARCH AND FACTS ........ 138
Komilova A.N., THE ROLE OF INTRODUCTION OF THE CONCEPT "ECONOMIC PRODUCTION" IN INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS ........ 141
Kozimjanovov A., NON-ALCOHOLIC FATTY LIVER DISEASE ........ 146
Kutlikova G.M., ANALYSIS OF PROTEIN PARAMETERS IN PATIENTS WITH CORONARY HEART DISEASE ........ 151
Majidova G.K., REMEDIAL SOLUTION FOR PRAGMATIC DIVERGENCES IN ENGLISH CLASSES ........ 154
Makhmudova D.M., TECHNOLOGY OF CREATING ELECTRONIC BOOK OF FAIRY TALES IN PRESCHOOL ORGANIZATIONS ........ 157
Mamajanova M., MODEL CONCEPT MODELING IN LINGUISTICS TYPES OF LINGUISTIC MODELS ........ 160
Mamatova D., XITOY TILIDA MIKROMATNNING DERIVATSION TAHLILI ........ 164
Mamazhonov Z.A., ANATOMY AND TOPOGRAPHY OF FURROWS AND BENDS, CYTOARCHITECTONICS OF THE AUDITORY CORTEX OF THE TEMPORAL LOBE OF THE HUMAN BRAIN IN POSTNATAL ONTOGENESIS ........ 167
Matxalikova A.H., FACTORS OF SUCCESSFUL TEACHING PROCESS FOR KINDERGARTEN ENGLISH TEACHERS ........ 172
Matyokubov J., EQUIVALENT ISSUES OF THE PROVERBS IN THE GERMAN AND UZBEK LANGUAGE (IN THE CASE OF ADVERSE EVENTS) ........ 175
Mirzaev K.M., ISSUES ON THE USAGE OF CONJUNCTION “BUT” IN DIFFERENT LITERARY TEXTS ........ 179
Muhtashamova P.Z., THE PECULIARITIES OF LITERARY TRANSLATION ........ 182
Muxamedova S.K., THE IMPORTANCE OF MULTIMEDIA LESSONS IN PRIMARY EDUCATION ........ 185
Nasritdinov M.M., BOSHLANG`ICH SINF MATEMATIKA KURSIDA GEOMETRIK MATERIALNI O’RGATISHDA UCHRAYDIGAN KAMCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH ........ 187
Niyazova Y.M., Ganieva I.Yu., THE IMPACT OF LIVER DISEASE ON COGNITIVE FUNCTION ........ 189

Numanova S.E., ENERGY-EFFICIENT MODERN CONSTRUCTIONS OF EXTERNAL WALLS ........ 193
Nurmatov Kh.V., Siddikov K.M., Khakimov Z.K., Yusupov B.L., Raimberdiev S.A., FRIGHTENINGHYPNOTISM IN CASES OF VIOLATIONS ........ 196
Nurmatova N.N., ETHICAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE ........ 200
Nurmatova N.N., MAIN CHARACTERISTICS OF THE MODERN STAGE OF SCIENCE DEVELOPMENT ........ 204
Nurmatova I., Amirqulova O., Qayumov E., INNOVATION IN EDUCATION REFORM YOUTH IN SOCIAL DEVELOPMENT ........ 208
Otavaliyev B.S., THE PRINCIPLES OF CREATING VARIOUS ORGANIZATIONAL FORMS OF THE INNOVATION PROCESS IN AGRICULTURE ........ 210
Pazilova B., STRATEGIES AND APPROACHES FOR TEACHING AND LEARNING OF MEDICAL TERMINOLOGY ........ 213
Pazilova N.M., IMPROVING LISTENING SKILL BY USING PRACTICAL TECHNIQUES IN HIGHER EDUCATION ........ 217
Pulatov M.E., Gapparov X.A., POLIOMYELITIS DISEASE AND ITS COMPLICATIONS ........ 221
Qodirov R.Sh., GENERAL PROPERTIES OF AMINO ACIDS ........ 225
Qosimov A., BASIC METHODS OF BIOCHEMICAL RESEARCH ........ 228
Rajapova M.A., THE USAGE OF COGNITIVE METAPHOR AND ALLEGORY IN DISCOURSE ........ 232
Raxmatullaev A., Ulugmurodov E.B., PROBLEMS ARISING FROM THE USE OF TRANS-BOUNDARY RIVER WATERS (ON THE EXAMPLE OF THE SYR DARYA AND THE AMUDARYA) ........ 234
Raxmonqulov X.B., Botirov M.A., Xurramova N.Y., THE ROLE AND THE PRACTICAL IMPORTANCE OF COMPOSUTION DURING COLOUR DESCRIPTION STUDIES (AS AN EXAMPLE OF DESCRINING HUMAN FEATURE) ........ 241
Sadatov C.K., STAGES OF PROCESSING THE HUMAN HALF- BODY IN THE DRAWING . (IMAGE OF THE HEAD OF A LIVING PERSON) IN THE EXAMPLE OF THE PICTURE ........ 245
Sativaldiyeva S.D., Utamurodov J.D., INNOVATIVE METHODS OF TEACHING GRAMMAR OF ENGLISH LANGUAGE ........ 250
Sayfidinova G.S., IQBOL MIRZO SHE'RLARIDA QO'LLANILGAN IBORALARNING SEMANTIK JIHATDAN TASNIFI ........ 254
Shodmonkulova N.F., FORMATION OF CHILDREN'S CREATIVITY THROUGH UZBEK FOLK SONGS ........ 258

Sobirov A.A., DEVELOPMENT OF COMPETITIVE MARKETING STRATEGIES FOR THE SALE OF FRUITS AND VEGETABLES ............ 261
Sodiqova D.T., MYOCARDIAL INFARCTION ON THE BACKGROUND OF CHRONIC OBSTRUCTIVE PULMONARY DISEASE ............................... 265
Solomonnik O.N., Tukhtanazarova N.S., ORGANIZATION OF EMERGENCY CARE AND INTENSIVE CARE IN THE FULMINANT FORM OF VIRAL HEPATITIS IN YOUNG CHILDREN ........................................................ 268
Sultonov S.T., THE NEED FOR MODULE EDUCATION ........................... 272
Toshmatova Sh.R., Ernazarov I., THE IMPORTANCE OF THE PROBLEM OF BIOREMEDIATION AS AN IMPORTANT SCIENTIFIC AND PRACTICAL PROBLEM IN THE FIELD OF HUMAN ACTIVITY .................................. 274
Turaeva S.A., LANGUAGE AND THOUGHT ............................................. 277
Turdibekova I., PROBLEMS AND SOLUTION OF TRANSLATING UNIQUE BANKING TERMS FROM ENGLISH INTO UZBEKISTAN ...................... 281
Umarova M.A., Abdullaeva D.A., THE CHARACTERISTIC OF ENERGY METABOLISM DISORDERS AND ITS CORRECTION IN CHILDREN WITH CELIAC DISEASE .......................................................................... 285
Valieva V.Yu., Abduvalieva G.T., Yaminova N.Kh., CARDIAC DISORDERS IN PATIENTS CHRONIC VIRAL HEPATITIS AND CIRRHOSIS OF THE LIVER ............................................................................................ 290
Xolmatova N.O., Abduraimova O.A., METHODS OF DEVELOPMENT IN ADOLESCENCE ............................................................................. 295
Xudayberdiev X.X., Xudayberdieva G.X., NATIONALITY: VIEWS, PROBLEMS AND SOLUTIONS ................................................................. 298
Yaminova N.Kh., Valieva V.Yu., Abduvalieva G.T., FATTY LIVER DISEASE OF VARIOUS ETIOLOGIES ........................................................... 302
Yaxshiyeva N., Ochilova Z., METROLOGY, CERTIFICATION AND STANDARDIZATION ........................................................................ 306
Yusupova G.V., Ibragimova K.Z., PROTEIN BIOCHEMISTRY .................. 309
Zaparov A.A., Toychiev R.A., Khusanov U.T., TEACHING TECHNOLOGY IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS ON THE “STEM” EDUCATIONAL APPROACH ................................................................................... 312
Zhuraeva N.T., MATHS KEY OF MIND AND INTELLIGENCE (METHODOLOGY FOR THE FORMATION OF ELEMENTARY MATHEMATICAL REPRESENTATIONS OF CHILDREN IN PRESCHOOL INSTITUTIONS) ........................................................................... 316
Ziyayeva H., THE PECULARITIES OF COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING APPROACH IN LANGUAGE CLASSROOMS ....................... 320

Абдиев А.Н., Маҳмудов Ш., Тўрабоев А., УЗУМЧИЛИКНИНГ ИҚТИСОДИЁТ ВА ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИДАГИ АҲАМИЯТИ ................. 323

Абдувахопова Н.Р., РЕОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА КРОВИ В ЭКСПЕРИМЕНТЕ И ПРИ НЕКОТОРЫХ ГЕМАТОЛОГИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЯХ ................................................................ 326

Абдувахопова Н.Р., ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАБОТКИ ПУПОВИННОЙ КРОВИ С ТРАНСПЛАНТАЦИОННЫМИ ЦЕЛЯМИ ............................... 330

Abdullaeva D.A., PREVALENCE OF HCV INFECTION IN VARIOUS FOR GROUPS OF CHILDREN AND ADULTS .................................................. 334

Абдуллаева М.Э., КЛИНИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ НЕПЕРЕНОСИМОСТИ ГЛЮТЕНА БЕЗ ЦЕЛИАКИИ У ДЕТЕЙ ........... 337

Абдурашидов Д.А., Пакирдинов А.Б., Фозилов Ф.А., Насритдинова Н.Б., Мухаммаджонова Л.А., Абдурахманов А.А., КЛИНИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ БОЛЬНЫХ КРАСНЫМ ПЛОСКИМ ЛИШАЁМ НА ФОНЕ НИЗКОИНТЕНСИВНОЙ ЛАЗЕРНОЙ ТЕРАПИИ ........................ 341

Авазов С., Сиддикова Н., Абдуллаева Г., ГРИБКОВЫЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ СОИ ........................................................................................... 345

Адилов Б.Б., НАҚШБАНДИЯ ТАРИҚАТИ ФАЛСАФАСИНИНГ МИЛЛИЙ ДАВЛАТЧИЛИК ТАРИХИДАГИ АҲАМИЯТИ ..................... 350

Azimov U., HIERARCHY OF VALUES AND PERSONAL VALUES ........ 354

Айвазян А.Л., МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОПРЕДЕЛЕНИЮ НАЛОГОВОЙ НАГРУЗКИ ПРЕДПРИЯТИЯ ........................................... 356

Айтбаев А.К., СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ПРИОРИТЕТЫ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ................... 362

Акбаралиев К., ИННОВАЦИОННАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ ........................................................ 366

Akbarova R.M., DIAGNOSTIC CRITERIA OF INTESTINAL INFECTIONS IN CHILDREN BEFORE THE FIRST YEAR OF LIFE ............................... 370

Артикова С.Г., ИММУНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗАБОЛЕВАНИЙ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ СИСТЕМЫ .................... 374

Архипёнкова Т.А., СОВРЕМЕННЫЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЗАТРАТАМИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ........................................................ 380

Архипёнкова Т.А., ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЙ «ЗАТРАТЫ», «РАСХОДЫ» И «ИЗДЕРЖКИ ПРОИЗВОДСТВА» .......... 386

Асатуллаева Я.В., РАЗВИТИЕ СТРАХОВАНИЯ ИМУЩЕСТВА В РФ.. 390

Асқаров Х.А., Исомиддинов А.С., АНАЛИЗ МЕСТ РИТИФИКАЦИОННОЙ КАЛЛОНЫ В ОА «FARG'ONAAZOT» ............ 394

Атамухамедова Г.С., ОСВОЕНИЯ РУССКОЙ ФОНЕТИКИ .................... 399
Ахмадалиева У.К., СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ И ЛЕЧЕНИЯ ГНОЙНОГО ПИЕЛОНЕФРИТА ............................................. 403
Ахматов А., ХАРАКТЕРИСТИКА ИСТОРИИ ЛИТЕРАТУРНОЙ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ КАШКАДАРЬИНСКОЙ КАНТЫ ................. 406
Ахматохунова М.К., СОВРЕМЕННЫЙ АНАЛЬГЕТИК ЛОРНОКСИКАМ В ЛЕЧЕНИИ БОЛЕВОГО СИНДРОМА .................................................. 410
Ахмедов А.Ю., Мадияров Г.А., КОНКУРЕНЦИЯ, АНТИМОНОПОЛЬНОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ: НОВЫЕ ВЫЗОВЫ И РЕАЛИИ .................................................................................................. 414
Ахмедова М.А., Масадиков Ш.У., РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ РЕЧИ ....................................................... 421
Ашурова А.Э., ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ................................................................................................ 425
Байханова Н., ИЗУЧЕНИЕ УРОВНЯ КОРТИЗОЛА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ СОДЕРЖАНИЯ CD4-ЛИМФОЦИТОВ ПРИ ВИЧ/СПИД ЗАБОЛЕВАНИЯХ .................................................................................. 429
Балтаева А.Т., ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У УЧАЩИХСЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ ....................... 432
Береснева А.В., ОСОБЕННОСТИ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА ................ 435
Биккулова К.Р., СОВРЕМЕННЫЕ СИСТЕМЫ ОПТИМИЗАЦИИ МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ НЕФТЕДОБЫВАЮЩЕГО ПРЕДПРИЯТИЯ ............................................ 439
Биккулова К.Р., ПРОБЛЕМЫ СИСТЕМЫ МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ НЕФТЕДОБЫВАЮЩЕГО ПРЕДПРИЯТИЯ ............................................................................................ 443
Битов Х.А., Дадашев А.А., ЧЕЛОВЕК И ПРИРОДА В СОЦИОКУЛЬТУРНОМ ИЗМЕРЕНИИ .................................................. 451
Бобожонов С.С., ХАРАКТЕРИСТИКА КОМОРБИДНОСТИ КАРДИОЛОГИЧЕСКИХ БОЛЬНЫХ В УСЛОВИЯХ МНОГОПРОФИЛЬНОГО СТАЦИОНАРА ............................................... 456
Бобоназарова Д., ДИСКУРС АНАЛИЗ – КАК СОВРЕМЕННЫЙ МЕТОД ИНТЕРПРЕТАЦИИ РЕЧЕВЫХ КОММУНИКАЦИЙ ............................... 460
Боднар А.А., РАЗВИТИЕ ЛИЗИНГОВОГО КРЕДИТА В РЕСПУБЛИКЕ БЕЛАРУСЬ .................................................................................................. 466

Болтабаев А.М., Абдуллаева К.А., Усманова Д.Н., Кабулжанова М.Ш., ПРОГНОСТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИИ СТРЕСС – ЭХОКАРДИОГРАФИИ В ДИАГНОСТИКЕ ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ СЕРДЦА ........................ 471

Буранова С.А., ОБУЧЕНИЕ ДЕТЕЙ САМОСТОЯТЕЛЬНОМУ ДУМАЮ С ПОМОЩЬЮ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ................................................. 475

Валиева М.Ю., Салахиддинов З.С., Ахмадалиева У.К., Ганиева И.У., ПРОГНОСТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ФАКТОРОВ РИСКА ПРЕДГИПЕРТЕНЗИИ ........................................................................... 479

Валиева М.Ю., ВОЗРАСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАСПРОСТРАНЕННОСТИ ПРЕДГИПЕРТЕНЗИИ.................................. 482

Валиева З.С., ГЕНДЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ОСТРОГО ИНФАРКТА МИОКАРДА ..................................................................... 485

Василенко Н.С., ОСОБЕННОСТИ ОГАНИЗАЦИИ ТРУДА В БЮДЖЕТНОЙ СФЕРЕ.......................................................................... 489

Василенко Н.С., СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ БЮДЖЕТНОЙ СФЕРОЙ ................................................ 496

Веприцкая Е.В., НЕСТАБИЛЬНАЯ СТЕНОКАРДИЯ: ВОПРОСЫ ПАТОГЕНЕЗА И ПРИНЦИПЫ ФАРМАКОТЕРАПИИ............................ 500

Ганиева И.Ю., Ниязова Ё.М., ЭХОГРАФИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СИСТЕМНЫХ ПОРАЖЕНИЙ У БОЛЬНЫХ ЦИРРОЗОМ ПЕЧЕНИ АССОЦИРОВАННОГО ВИРУСОМ ГЕПАТИТА В ЖЕНЩИН .............. 504

Гаппаров Х.А., Пулатов М.Э., РАСПРОСТРАНЁННОСТЬ ИНФЕКЦИЙ HCV В РАЗЛИЧНЫХ ГРУППАХ ДЕТЕЙ И ВЗРОСЛЫХ........................ 510

Гибадуллин Б.Ф., Курбанаева Л.Х., ОСОБЕННОСТИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА ПРИ ПРОВЕДЕНИИ ПРОЦЕДУРЫ БАНКРОТСТВА ................ 513

Главатских М.Д., ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЯ (НА ПРИМЕРЕ ООО МОЖГАМОЛОКО)........................................................................................ 518

Го Лисинь, ИССЛЕДОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОЙ СТРАТЕГИИ ФИНАНСОВОГО МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ В ЭПОХУ БОЛЬШИХ ДАННЫХ ......................................................................... 523

Го Лисинь, ИННОВАЦИОННЫЙ ПУТЬ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСАМИ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ИНТЕРНЕТА........................................ 531

Дашковский Д.А., Дегтярев А.А., Кенесханова А.А., Найманбаев Н.Р., ОЦЕНКА УРОВНЯ ГИПОДИНАМИИ СРЕДИ СТУДЕНТОВ ПУТЕМ ИССЛЕДОВАНИЯ РЕАКЦИИ ОРГАНИЗМА НА ФИЗИЧЕСКУЮ НАГРУЗКУ ..................................................................................... 536

Дедажанов Б.Н., Эргашева Ф.И., РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ ........ 543

Домбровский Д.А., ИССЛЕДОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ ( НА ПРИМЕРЕ ООО ТЕЛЕЦ Г.КУНГУР) ........ 550

Домбровский Д.А., СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ (НА ПРИМЕРЕ ООО ТЕЛЕЦ Г.КУНГУР) ........ 555

Есемуратова Г.А., МЕТОДЫ  ОБУЧЕНИЯ ........ 560

Есингалиева Ж.Т., Бегунова С.В., РАЗВИТИЕ ПРОГРАММНО-ЦЕЛЕВОГО МЕТОДА ФИНАНСИРОВАНИЯ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ ........ 564

Жайбергенова Ж. Б., Абдирашитова Г. С., Аметова А.С., ХРОНИЧЕСКАЯ ПОЧЕЧНАЯ НЕДОСТАТОЧНОСТЬ КАК ОСЛОЖНЕНИЕ ГИПЕРТОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ ........ 570

Жузбаев А., Абдалиев А., БИЗНЕС-ПЛАН ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СФЕРЕ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН ........ 580

Жузбаев А., ЛИЗИНГ В ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА........ 587

Жумаева Г.А., ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА ПОСРЕДСТВОМ ВИДЕОКОНТЕНТОВ И ИХ ДИДАКТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ........ 591

Жураев Ш.М., Иброхимов Б.Т., ПРОБЛЕМЫ ГРУППОВОГО ПРЕСЛЕДОВАНИЯ В ЛИНЕЙНОЙ РЕКУРРЕНТНОЙ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОЙ ИГРЕ ........ 595

Зайналов Д.Р., Эрназаров Н.Э., ЦЕЛИ ФОРМИРОВАНИЯ ДОХОДНЫХ ИСТОЧНИКОВ БЮДЖЕТОВ........ 598

Замошникова В.П., ВИРТУАЛЬНАЯ ВАЛЮТА: РИСКИ ОД/ФТ И МЕРЫ ПО ИХ СНИЖЕНИЮ В РОССИИ........ 603

Ибрагимов Х.И., ПЕДАГОГИКА И ВОСПИТАНИЕ ........ 608

Ибрагимова Ф.Х., КОМПЕТЕНЦИИ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА........ 612

Иброхимова Л.И., Нажимова З.Н., Умаров М.Ш., Исмоилов М.А., ИЗУЧЕНИЕ ПАТОГЕНЕЗА САХАРНОГО ДИАБЕТА  ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЙ МОДЕЛИ НА ЛАБОРАТОРНЫХ ГРЫЗУНОВ ........ 615

Игнатенко Е.В., Игнатенко П.В., Губкина Л.А., Губкин А.В., РАЗРАБОТКА МОДЕЛИ ЭКСПЕРТНОЙ СИСТЕМЫ НА ОСНОВЕ ПРЕЦЕДЕНТОВ В СФЕРЕ ЮРИСПРУДЕНЦИИ ..................................... 619

Ильхамжанова Х.Т., АДАПТАЦИЯ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ........................................................................................ 624

Исамутдинов Р.Р., «БЕЗОПАСНОЕ МАХАЛЛЯ» И НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ЕГО КРИТЕРИЕВ ..................................................... 627

Исмоилов И.И., НАРУШЕНИЕ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СИМПАТИКО-АДРЕНАЛОВОЙ СИСТЕМЫ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ ............................................................ 632

Истамова Д.Н., Истамова Ф.Н., ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ВОСПИТАНИЯ ГИПЕРАКТИВНЫХ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ........................................................................................ 636

ЭЛЕКТРОННОЕ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЕ
ПЕРИОДИЧЕСКОЕ МЕЖДУНАРОДНОЕ ИЗДАНИЕ

# *«Экономика и социум»*

Выпуск № 1(80) 2021 ч.1
Сайт: http://www.iupr.ru
Издательство: ООО "Институт управления и социально-экономического развития", Россия, г. Саратов
Дата издания: Январь 2021